

CHET TILLARINI O'RGANISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV ASOSIDAGI  
“HISSIIY TAYANCH” MOTIVATSION METODINI ISHLAB CHIQISH

(DEVELOPMENT OF THE “EMOTIONAL ANCHOR” MOTIVATIONAL  
METHOD BASED ON A PSYCHOLOGICAL APPROACH IN FOREIGN LANGUAGE  
LEARNING)

Safarova Munira Jamshid qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Filologiya va chet tillarini o'qitish Ingliz tilili 3  
fakulteti 2521-guruh talabasi

Agzamxodjayeva Saodatxon Abrarovna

Ilmiy rahbar: Amaliy fanlar 3 kafedra katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Hissiy tayanch” metodining asosiy printsiplari va psixologik yondashuvga asoslangan qo'llanilishi taqdim etiladi. Maqsad: Til o'rganuvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, dars jarayonida diqqatni jamlash va psixologik qulaylikni ta'minlovchi o'qitish metodini ishlab chiqish, uni tatbiq etish va ijobiy natija olish.

**Kalit so'zlar:** til o'rganish, interaktiv, motivatsion, psixologik, til bilish, yangi metod, hissiy tayanch

**Abstract:** This article presents the main principles and application of the “Emotional Anchor” method, developed by the author, based on a psychological approach. The aim of the study is to enhance learners' motivation in foreign language acquisition, improve concentration during lessons, and ensure psychological comfort. The method is designed to be implemented in the teaching process and to achieve positive outcomes in language learning.

**Keyword:** language learning, interactive, motivational, psychological, language acquisition, new method, emotional anchor

**Аннотация:** В статье представлены основные принципы и практическое применение метода «Эмоциональный якорь», разработанного автором на основе психологического подхода. Цель исследования — повысить мотивацию изучающих иностранный язык, улучшить концентрацию внимания на занятиях и обеспечить психологический комфорт. Метод предназначен для внедрения в образовательный процесс и направлен на достижение положительных результатов в освоении иностранного языка.

**Ключевые слова:** изучение языка, интерактивность, мотивация, психология, овладение языком, инновационный метод, эмоциональный якорь



Chet tillarini o'rganishda motivatsiyani oshirish muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, til o'rganuvchilarda dars jarayonida ichki motivatsiyani kuchaytirish hamda o'z fikr va qarorlarini mustaqil tahlil qila olish qobiliyatini shakllantiruvchi psixologik yondashuv asosidagi metodni ishlab chiqildi.

Aynan mana shu mavzuda Sharifjon To'lqin o'g'li Abdurahmonov "Chet tilini o'qitish metodikasi muammo emas, balki nutq va grammatik-sintaktik tajribani o'zlashtirishning psixologik mexanizmlaridanto'g'ri foydalanish, tilshunoslikni adekvat o'zlashtirish va izohlash muammosidir" - deydi. Bundan tashqari, tillarni o'rganish jarayonidagi muammolar bo'yicha juda ko'p olimlar psixologik tadqiqotlar olib borganlar jumladan K.D.Ushinskiy, L.S.Vygotskiy, A.P.Nechaev, K.N Komilov, N.D.Uznadze kabilar ilmiy ishlar olib borganlar.

Ko'plab o'quvchi - talablar chet tillarini o'rganishda darsda faol qatnashmaydi, yangi so'zlarni o'zlashtirish va grammatik qoidalarni amalda qo'llashda sustkashlik qiladi.

Ushbu metodda til o'rganuvchilarga va talabalarga dars jarayonida o'zlariga ijobiy hissiyot beruvchi shaxsiy buyumdan foydalanish imkoniyati beriladi. Bu buyum (masalan, bilakuzuk, qalam, qog'oz, gul va hokazo) o'quvchining darsdagi psixologik holatini yaxshilaydi, xavotirni kamaytiradi va e'tiborni oshiradi.

Dars davomida ular o'zlarini ishonchli his qilishadi va bu diqqatni yaxshilaydi. Bu eksperiment talaba-o'quvchilardan uyda ham qo'llab ko'rishi so'raladi. Va tajriba davomida talabalardan ushbu tajriba haqidagi yozma va og'zaki fikrlari olinadi. Samarali natija qayd etilsa, metod dars jarayonining bir qismi sifatida joriy qilinadi.

Kutilayotgan natijalar:

- Metod 60 - 70 % ijobiy natija berishi
- Talablarga ham manzur kelishi

Eslatma:

- Sinov muddati 1 hafta yoki 10 kun davom etishi kerak
- Talabalar "Hissiy tayanch" (Emotional anchor) metodi davomida bir-birini hurmat qilishi va jamoa ichida ishonch hissini ta'minash uhun ustoz nazoratida bo'lishadi.

O'quvchilarning chet tillarini o'rganish jarayonidagi passivligi va motivatsiya yetishmasligi dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida muallif tomonidan ishlab chiqilgan "Hissiy tayanch" metodining psixologik yondashuvga asoslangan qo'llanilishi taqdim etildi.

Metod o'quvchilarga dars jarayonida ijobiy hissiy tajriba beruvchi shaxsiy buyumlardan foydalanish imkonini yaratadi, bu esa xavotirni kamaytiradi, diqqatni oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.





Tajribaviy qo'llash natijasida metod 60–70% ijobiy natija berishi kutilmoqda va dars jarayonida samarali qo'llanilishi, shuningdek, o'quvchilarning til o'rganish jarayonini interaktiv va motivatsiyani oshiruvchi qilish imkonini beradi. Shu bilan, "Hissiy tayanch" metodi chet tillarini o'qitishda psixologik yondashuvni amaliy qo'llashga va dars sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ushinskiy.K.D (1986). O'qitish psixologiyasi. Moskva:Pedagogika.
2. Abdurahmonov, SH.T.(2022). Chet tillarni o'qitish psixologiyasi zamonaviy yondashuvlar va ko'rsatmalar. Central Asian Academic Journal Of Scientific Research.
3. Abduakimova, S.A. (2022, february.. Chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuv. International scientific - practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foriegn languages"/
4. ENHANCED EQUAL ACCESS TO AND COMPLETION OF HIGHER EDUCATION FOR STUDENTS IN NEED OF ADDITIONAL SUPPORT IN EDUCATION: THE LEARNING TOGETHER APPROACH, S.Agzamkhodjaeva., (2025-06-21, Vol. 5 No. 6 (2025): Multidisciplinary Journal of Science and Technology)
5. 1. S.Agzamkhodjaeva, (2025). Conceptual Diversities and Empirical Shortcomings: A Critical Analysis of Research on Inclusive Education. Innovative and technical: Conference on Scientific Innovations and Research
6. 2. S.Agzamxodjaeva, (2025). THE IMPACT OF TEACHER TRAINING IN SPECIAL EDUCATION ON THE IMPLEMENTATION OF INCLUSION IN MAINSTREAM CLASSROOMS. International scientific and practical online conference (June 4-5, 2025)

